

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING
MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMO
SIFATIDA O'RGANILISHI**

assistenti S.S. Nabiyeva

Toshkent Davlat yengil sanoati va to'qimachilik instituti

Annotasiya: Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, ta'lim olishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi, fizika ta'limi samaradorligini oshirish imkoniyatlari muammo sifatida o'rganildi. Mustaqil ijodiy faoliyati tushunchalarining didaktik va metodik jihatlari tahlil etildi. Uning ta'lim jarayonidagi o'rni sifatida o'rganildi va tahlil etildi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosi, muammoli masalalar va topshiriqlar, mavzular berish orqali ularning faolligini oshirish, ta'lim samaradorligini yuqori bo'lishida muhim hisoblanishi yoritib berildi.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, ijodiy faoliyat, muammo, ta'lim, jarayon, talaba, samaradorlik, psixolog, tadqiqot, masalalar, topshiriqlar.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. O'z vaqtida va to'g'ri shakllantirilgan faoliyat talabalarning ta'lim olishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi shartlardan biridir. Shuning uchun ham fizika ta'lim jarayonida talabalarning faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish metodikasini takomillashtirish fizika ta'limi samaradorligini oshirishning hozirgacha yetarlicha foydalanilmay kelayotgan imkoniyatlardan biridir.

Mavzu bayoni. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning turlicha jihatlari taniqli pedagog va psixologlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. jumladan: Babanskiy Yu.K., Grudenov Ya.I., Kabanova-Meller Ye.N., Leont'ev A.N., Rubinshteyn S.L., Talizina N.F., Hukina G.I., Yakimanskaya I.S. kabi psixolog olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida inson faoliyatining turli jihatlarini tatqiq qilishgan. Mehnat qilish, o'qish-o'rganish, o'yin inson faoliyatining asosiy turlari hisoblanadi va inson umrining muayyan davrlarida ulardan biri yuqori darajada bo'ladi. Har qanday faoliyat, uni tashkil etuvchi hatti harakatlar tizimi haqidagi umumlashgan mavhum tasavvurlardan iboratdir.

N.F.Talizina inson faoliyatini «Motiv vositasida o'zaro bog'langan hatti –

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-7**

harakatlar tizimi va faoliyat usullari» shaklida o'rgangan. Talabalarni bilimga etiyojni asrab-avaylashi, rivojlantirishi va bilish vositalari bilan ta'minlashi lozim, deb o'z ilmiy ishida yoritib bergan. S.L.Rubinshteyn «motiv», «maqsad», «sharoit», «sub'ekt» (bajaruvchi shaxs) va «ob'ekt» (bajariladigan vazifa, yechiladigan topshiriq, hal qilinadigan muammo) xususiyatlarga asoslanib talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishda «topshiriq» katta ahamiyatga ega ekanligini, A.N.Leont'ev «ehtiyoj», «motiv», «faoliyat» kategoriyalariga rioya qilib, mustaqil ijodiy faoliyatda topshiriq muhim ahamiyatga ega ekanligi «maqsad» tushunchasi bilan yonma-yon holda tahlil qilib berganlar. Inson faoliyatining qaysi sohasi bo'lsin, moddiy ishlab chiqarish, fan jumboqlar, ta'lim-tarbiyani hal qilish, ularning maqsadi, shu bilan birga harakatlantiruvchi kuchi topshiriqlar va vazifalarda aks etadi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini didaktik va metodik jihatlarini tahlil etildi. Uning ta'lim jarayonidagi o'zni muammo sifatida o'rganildi va tahlil etildi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muammoli masalalar va topshiriqlar, mavzular berish orqali ularning faolligini oshirish, ta'lim samaradorligini yuqori bo'lishida muhim hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ijodiy ilmiy izlanishlarini tashkil etishda ta'limni individuallashtirish muammosining pedagogik va metodik asoslari ilmiy izlanishlari talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish muammolariga qaratilgan. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati ta'limning shunday vositasiki, uni o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'li bilan: Bilim olishga, o'qish-o'rganishga ishtiyoq yanada orttiriladi, dars jarayonida hosil qilingan motivlarning davom etishi ta'minlanadi; talabalarning bilmaslikdan bilishga, malaka doirasining kengaytirishga olib keladi; o'rganilayotgan mustaqil topshiriqlar ustida talabalarning o'z faoliyatini mustaqil davom ettirishiga zamin tayyorlaydi; o'qituvchining talabalar faoliyatiga rahbarlik qilishi ma'lum darajada yengillashadi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini oshirish texnologiyasini aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'tkazilgan so'rovnomada quyidagicha savollar berildi: 1) Siz bilim olishga, fizika fanining qaysi mavzulari sizni qiziqtiradi? 2) Siz ko'proq masalalar yechishga qiziqasizmi (nima uchun)? 3) Qanday tipdagi masalalar sizni qiziqtiradi? 4) Siz darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishni xohlaysizmi, internet tarmoqlaridan-chi va qanday foydalanasiz? 5) Fizika qonunlarini amaliyotga qo'llagan holda, mustaqil innovasion ijodiy ish qila olasizmi? 6) Siz fizikadan to'garak mashg'ulotiga qatnashishni hohlaysizmi? 7) Mavzular o'rganishni va masalalar yechishni mustaqil davom ettira olishni istayabsizmi? 8) Fizikadan test so'vollarini tuza olasizmi? 9) Kelajakda ilmiy izlanishlar tadqiqotlar kashfiyotlar innovasiyalar qilishni hohlaysizmi? 10) Kelajakda o'z kasbingiz bo'yicha yangiliklar startab

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQUV INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-7

loyihalar yaratish ga qiziqasizmi, savollar asosida talabalar tayyorgarligi boshlanadi. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida talabalarda mustaqil ravishda masalalar yechishni, mavzularni mustaqil o'rganish istagi borligi ma'lum bo'ldi. Ilmiy-metodik izlanishlar natijasida dars va to'g'arak mashg'ulotlarida, ta'lim jarayonining har bir yo'nalishida, har bir davrida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish dolzarb muammo ekanligiga ishonch hosil qildik va mavzuni ilmiy asosladik.

Mamlakatimizda fan-texnikaning jadal taraqqiy etishi natijasida axborot oqimining shiddat bilan kirib kelganligi sababli ta'lim oluvchilarga zarur bilimlarni etkazish, ta'lim jarayonida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini o'quv rejasidagi mavzularning turli ko'pinishlarda qabul qilinishi tahlil etilib o'rganilishi ta'lim samaradopliligini oshirishda muhim omil bo'la olishi tajribalar yordamida asoslandi.

Ta'lim olish muttasil tarzda zamon talablariga moslashib, fan-texnika yutuqlariga hamohang ravishda takomillashib boradigan jarayon hisoblanadi. XXI asrdagi ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri- talabalarning olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishlariga bo'lgan talab, DTSlari va dasturlarining takomillashtirilishi, boshqacha qilib aytganda, ta'lim tizimi mazmuniga singdirilishi, uning ta'lim natijalariga erishish mustaqil ijodiy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish va mustaqil o'rganish uchun soatlarni ajratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, radiotexnika, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya hosil qiladigan qurilmalar, quyosh panellari kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarida natijaga erishib bo'lmaydi" deb ta'kidlab o'tgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa fizika fanini chuqur o'rganish uchun o'qitish metodikasida mustaqil ta'limni rivojlantirish va uning mazmunini ham takomillashtirishni talab etadi.

Auditoriyadan tashqarida mustaqil ijodiy faoliyatni oshirish uchun turlicha metodlar bilan uning salohiyatini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish mazmuni, ijodiy faoliyat turlari, faoliyat tushunchasi, ijodiy faoliyatning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi pedagogik mohiyati tahlili, mustaqil ijodiy faoliyatni

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-7

rivojlantirishning asoslari, talabalarning o'z ustida mustaqil ishlash samaradorligining garovi ekanligi asoslandi. Hozirgi kunda ilmiy texnik taraqqiyotning innovasion rivojlanishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak muhandislarning zamonaviy sharoitlarga tez moslashishi hamda o'quv-bilish motivlarini egallashlariga intilishini talab etadi. Bu esa talabalarning mustaqil izlanishga, kasbiy muammolarni mustaqil yechish, unga ijodiy yondoshishga o'rgatish zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun ham, bugungi kunda ijodkor, izlanuvchan fikrlovchi kadrlarni tayyorlash jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy muammo va vazifalaridan bo'lib, bunda kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Talabalarda tayanch, umumkasbiy va maxsus-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta'lim mazmuni, o'quv reja, fan dasturlari, ta'lim shakli, metod, vositalari, elektron axborot ta'lim resurslari hamda boshqa didaktik materiallar, o'quv-metodik qo'llanmalar va darsliklar, laboratoriya jihozlari, ta'lim texnologiyalari va boshqalardan foydalanish asosida aniqlanishi asoslandi. Natijada yetuk, malakali kadrlarni mustaqil va reja asosida o'z ustida ishlashini, kasbiy va ijodiy faoliyat kompetensiyalarini izchil rivojlantirib borishi zarur ekanligini ko'rsatadi natijada kompetent kadr bo'lib yetishishni ta'minlashga erishiladi.

Talabalarning mustaqil ijodiy hamda ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos ijodiy kompetensiyalar va ularning mazmun mohiyati, yondashuvlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari alohida ta'kid qilindi. Yuqorida bildirilgan fikrlar, bizgacha olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida ijodkorlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi. Ijodiy faoliyat - bu yangi g'oya va yechimlarni pedagogik hamkorlikda amalga oshirish va ommalashtirishga yo'naltirilgan tadqiqot faoliyati bo'lib, tanlab olingan g'oyalarni axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida sifat jihatidan yangi elementlarga, tashkil etuvchi omillarga to'liq pedagogik tizim sifatida qabul qilish va amalda sinab ko'rish va natijalarni taqqoslash, yechimlardagi nomutanosiblik va ziddiyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Bu berilgan ta'rif yuzasidan ijodiy faoliyat kompetensiyasi – talabalarda erkin ijodiy muhitning yaratilishi, o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi mustaqil harakatiga asoslanib integratsiyalashgan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iborat bo'ladi. Bu tushunchaga alohida ta'rif quyidagicha talqin qilinadi mustaqil ish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarining o'zaro aloqasi axborot tarmoqlarining birlashuvi natijasida ijodkorlik rivojlanadi. Kutubxonalar va internet tarmoqlaridan ya'ni ma'lumotlar bazalaridan tegishli ma'lumotlarni izlash, keyin esa ularni qayta ishlash, mustaqil ishni muvofiq shaklga

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-7**

keltirish, mavjud muammolarni kasbiy hamjamiyatlarda muhokama qilish va materiallar bilan almashish zarurligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Бабанский Ю.К., Груденов Я.И. , Кабанова-Меллер Е.Н Буров В.А. Проблемы учебного физического эксперимента. Ж. Физика в школе. -№ 7. -2001. -С.3-7. Буров В.А.
- 2.Груденов Я.Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога/ В.Н. Введенский // Педагогика. - 2003. - №10. - С. 51-55.
3. Груденов Я..Ермакова О.Б. Вербицкий А.А. Школа контекстного обучения как модель реализации компетентностного подхода в общем образовании //Педагогика. – 2009. – № 2. – С. 12-18.
4. Sultonova O‘.N.“Fizikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish”. “Texnika va texnologik fanlar sohalarining innovation masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjumani. -.:2020 yil 22 sentyabr. - 410-412. B
- 5.To‘raev B., Sultonova O‘.N. Savol va masalalar to‘plami. Darslik.-t.:2021. - 365 bet.
8. Sultonova O‘.N., To‘raev B. Sultonov S.N. “Fizika fanidan muammoli masalalar yechishda kompetensiyaviy yondashuv” выпуск 6 (50) f.a mamadaliev, egyptian triangle (books 1, 2,3) t/ “renessans press”-.: 2018 y, 144-149.b
9. Payanova F.K. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining mustaqil ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llab rivojlantirish .O‘zMUxabarlari7- son 143-146 .